

Yuldasheva Maxsuda Yusubovna

Asaka pedagogika kolleji

maxsus fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati mazmuni, rivojlantiruvchi faoliyat markazlarida bolalarning o'yin faoliyatini tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi davlat o'quv dasturi, faoliyat markazlaridagi o'yinlar va ularning mazmuni xususidagi fikrlar ifoda etilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha yosh, o'yin, o'quv dastur, faoliyat markazi.*

Аннотация: *В данной статье излагаются вопросы содержания игровой деятельности дошкольников, организации игровой деятельности детей в центрах развивающей деятельности, государственной образовательной программы, организующей учебно-воспитательный процесс для детей в дошкольных образовательных организациях, игры в центрах деятельности и особенности их содержания.*

Ключевые слова: *дошкольное учреждение, игра, учебная программа, центр деятельности.*

Annotation: *this article expresses the content of preschool children's play activities, the organization of children's play activities in development activity centers, the state educational program that organizes the educational process for children in preschool educational organizations, games in activity centers and their content.*

Keywords: *preschool age, Game, educational program, Activity Center.*

KIRISH

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo.

Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha yangi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, "Yoshlarga oid Davlat dasturi", yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Kasb-hunar kollejlarda amalga oshiriladigan kasbiy ta'lim natijasida nazariy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi shakllantiriladi. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida esa, o'quvchilar, asosan, amaliy kasbiy-ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Bu ikki mushtarak jarayon mahsuli sifatida muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan kichik mutaxassisni tayyorlash ta'minlanadi. Zamonaviy mutaxassis kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish, kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishning samarali shakllari, faol usullari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-usulik jihatdan asoslash lozim bo'ladi. Kasb-hunar kollejlarda malakali kichik mutaxassis tayyorlash ishlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- mutaxassislik bo'yicha davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilganligi;
- ta'lim mazmunida ko'zlangan ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi;

- malakali kichik mutaxassis tayyorlash jarayonining barcha tarkibiy qismlari (nazariy mashg'ulotlar, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti) o'zaro bog'liq holda uzviy tashkillashtirilishi;

- kasbiy ta'lim berish mazmunining fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti darajasi talablariga javob berishi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 24-sentabr kuni kasbiy ta'limni rivojlantirish va milliy malaka tizimini isloh qilishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bu haqda shu yil 5 fevral kuni ijtimoiy sohalar bo'yicha bo'lib o'tgan vidoselektor yig'ilishida vazifa qo'yilgan edi. O'tgan vaqt mobaynida tizimning samaradorligi tanqidiy o'rganilib, qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda professional ta'lim tizimi uch turdagi muassasalar: 333 ta kasb-hunar maktabi, 227 ta texnikum va 112 ta kollejdand iborat. Ular tabaqalashganligi va dasturlari o'rtasida uzviylik bo'lmagani sababli mavjud quvvatlardan unumli foydalanilmayapti.

Shu bois mazkur 3 turdagi muassasalar negizida texnikumlar tarmog'ini rivojlantirish taklif etilmoqda. Unga ko'ra, 600 ta texnikum tashkil etiladi. Maqbullashtirish natijasida bo'shaydigan 71 ta muassasa binosi maktablarga aylantirilib, 42 mingta yangi o'quvchi o'rni yaratiladi.

Bundan tashqari, ilgari kollejlard turli vazirlik va idoralarga qarashli edi. Endi bu tizimda boshqaruv, tashkiliy va metodik jihatdan yagona davlat siyosati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan yuritiladi.

Zamon talablariga tez moslashishi uchun texnikumlarning akademik mustaqilligini kengaytirish mo'ljallanmoqda. O'qish muddatlari va davomiyligini kasb murakkabligi va o'quvchining ta'lim darajasiga qarab belgilanishi ko'zda tutilmoqda.

Texnikumlarda ta'lim sifati va jozibadorligini oshirish maqsadida xalqaro ta'lim dasturlari yo'lga qo'yiladi. Dastlab, tajriba tariqasida, 14 ta texnikumda Angliyaning "BTEC" dasturi joriy etiladi. Bitiruvchilarga 70 ta davlatda tan olinadigan diplom beriladi hamda 200 dan ortiq xorijiy universitetlarga kirish

imkoni yaratiladi. Natijaga qarab, bu tajriba bosqichma-bosqich boshqa texnikumlarga ham tatbiq etilishi mumkin.

Qabul jarayonini ish beruvchilar talabi asosida shakllantirish ham muhim. Shu maqsadda elektron platforma yaratilib, unga barcha vazirlik va tarmoqlar ulanadi. Texnikumlarning ta'lim dasturlari sanoat tarmoqlari, tadbirkorlar birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so'ng amaliyotga kiritiladi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi.

ASOSIY QISM

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat o'quv dasturi "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablari"ga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 5ta markazda faoliyat yuritadi. Ular quyidagilar:

- 1.Til va nutq markazi. (nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar);
- 2.Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (qurish-yasash va matematika mashg'ulotlari);
- 3.San'at markazi. (rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari);
- 4.Syujetli rolli o'yinlar va dramalashtirilganmarkazi. (guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidal o'yinlar);
- 5.Ilm-fan va tabiat markazi. (tabiat, atrofdagi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari);

Davlat o'quv dasturida bolaning o'yin o'ynash huquqi tan olinadi, o'yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'yin o'ynash imkoniyatini ta'minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o'yin o'ynash imkoniyatiga hissa qo'shishi kerak. O'yin uchun sharoit yaratish, ya'ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qo'llab-quvvatlovchi resurslar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash juda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rnini juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Yuqorida keltirilgan o'quv dasturidagi faoliyat markazlarida ham bolalar ta'lim-tarbiya jarayoni o'yinlar asosida tashkil etiladi. Ushbu davlat o'quv dasturida butun o'quv jarayoni rejalashtirilgan bo'lib, biz oktabr oy mavzusini ko'radiga bo'lsak, ushbu oy mavzusi "Rang-barang kuz". Shuningdek ushbu oy mavzusi haftalarga va yosh guruhlariga qarab yana bo'lingan.

Ushbu mavzu bo'yicha bolalar bilan butun oy va hafta kunlari davomida rivojlantiruvchi markazlarda bolalar faoliyati turli usullarda tashkil etiladi. Ushbu oy uchun faoliyat markazlaridagi o'yinlar bilan tanishamiz.

Til va nutq markazi

«Urug`idan mevasigacha»

Maqsad: mevalar xaqida bilimga ega bo'ladi. Mevali daraxtlarni, ularning yaproqlari, urug`i va mevalarini ajrata oladi.

Jihoz va materiallar: bog` tasviri tushirilgan rasmlar. Mavzuli kartochkalar. **Faoliyatning borishi:**

1. Bolalar kartochkalarni ko'rib chiqishadi xamda mavzuli zanjirni yasashadi. (olma daraxti, olma, olma urug`lari va x.z.)

2.«Bog`» nomli suratni ko`rib chiqishadi va kichik mavzuli hikoya tuzishadi.

3. Qo`shimcha qism: to`g`ri aytish: daraxt-meva.

4. **E`tiborga molik jihati:** fikrlashi va nutqini rivojlantirish.

Syujetli – rolli o'yinlar va dramotizasiyalash markazi

«Onalar va qizlar»

Maqsad:oila a'zolarini biladi, ona va qiz munosabatlari shakllanadi, bola va ona orasidagi o'zaro shaxsiy munosabatlar shakllanadi,mexmon kutish va mexmonga borish qoidalarini biladi, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat tushunchalarini o'zlashtiradi.

Jihoz va materiallar:sumkachalar, fartuklar, ona va qiz uchun qo'shimcha kiyim, o'yinchoq idish-tovoqlar, qo'g'irchoqlar, soch turmaklari uchun jixozlar, bezak va taqinchoqlar

Faoliyatning borishi:

1. Ona va bolalarning birgalikda o'tadigan kunini rejalashtirish;
2. «Ona-qiz» syujetli o'yinining o'tishi.
3. Bolalar rollarini almashishi mumkin.

Qo'shimcha qism: bolalar yangi syujet o'ylab topishlari mumkin (masalan, mexmon kutishga tayyorgarlik ko'rayapmiz).

E'tiborga molik jihati: bolalarning oilada muomalaga kirishishlari; vaziyatni maromiga yetkazib o'ynay olishlariga.

Fan va tabiat markazi

«Tabiiy bo'yoqlar»

Maqsad:sabzavotlarning ajoyib xususiyatlari bilan tanish (lavlagi, sabzi, apelsinlarning),bo'yoq ranglarini ajratadi.

Kerakli jihaz va materiallar:fartuk, sabzavotlar, mevalar, taxtacha, pichoq, qo'lda ishlatadigan sharbat chiqargich, idish, oq rangli matoqiyqimlari, oq qog'oz.

Faoliyatning borishi:

1. «Tabiatdan bo'yoqlar» mavzusidagi rasmlarni tomosha qilish.
2. Sabzavot va mevalardan rang olish tajribasini o'tkazish.

3. Oq rangli matoni bo'yash.

4. Bolalar xulosa qilishadi. Xar bir rangga tegishli meva yoki sabzavotni qo'yishdan iborat jadvalni to'ldirishadi.

Qo'shimcha qism: qog'ozda tabiiy bo'yoqlar bilan ishlashga urinib ko'rishadi.

E'tiborga molik jihati: tajriba o'tkaza olishlariga va xulosa chiqara olishlariga, ish joylarini yig'ishtira olishlariga.

Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar uchun muhim o'rin kasb etadi, chunki bola markazlarda erkin faoliyat olib boradi. Tarbiyachi esa ularga yordamchi sanaladi. Bu esa bolalarni nutqini, erkin fikrlashini, jismoniy va ijtimoiy bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bolalar ongini rivojlantirishda asosiy faoliyat turi o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bola o'rgatilgan mashg'ulotni xotirada tez va mustahkam saqlaydi.

Markazlarda ham bolalar bilan o'yin orqali ishlash muhim o'rin egallaydi. Buning uchun biz pedagoglar markazlarni bolajonlarga jihozlab, barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

O'yinning katta ahamiyati shundaki, unda hech qaerda uchramaydigan jihat bor: bola o'z mustaqilligini ko'rsata oladi; o'yin va o'yinchoq, o'yindagi do'stlarini tanlashi mumkin, o'yin joyini, uning boshlanishi, oxiri va hokazolarni belgilab bera oladi. Bu qobiliyat bolalarda ma'lum ma'noda 3, 4 yoshda paydo bo'ladi.

Bolalar o'z zimmasiga ma'lum rollarni ola boshlaydi, lekin ularni "chizma" ko'rinishida boshqalarga ulashadi. 3-4 yoshli bola o'ziga yaxshi tanish bo'lgan insonlarning harakatlari va yurish-turishini to'liqroq va batafsilroq namoyon etadi.

4 yoshda syujet-rolli o'yinlar ancha ko'payadi. 5 yoshda syujetli o'yinlar uncha murakkablashmaydi, biroq o'yin birlashmalari kengayadi (avval bolalar ko'proq ikkita, uchta bo'lib o'ynagan).

Bolalarda o'yinlar ancha murakkab syujet bilan ajralib turadi. Unda odatda inson munosabatlari, ijtimoiy hayotning turli hodisalari aks etadi: o'yinlarda bevosita kuzatuvlardan va bilvosita (kitob o'qish, suhbatdan so'ng va h.k.) olingan tasavvurlar ulanib ketadi.

Bolalar ularga tanish bo'lgan o'yinlarni o'zlari tashkil qila oladi, ishtirokchilar tomonidan qoidalar aniq bajarilishi ustidan nazorat qilib boradi. Bu o'yinlar bolalarning jismoniy va irodaviy rivojlanishi uchun juda muhim.

O'yinni boshqarishning o'ziga xosligi shundaki, uni tashkil etish usullari o'yin vazifasi va xayoliy vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lishi va pedagog xayrixoh ishtirokchi pozitsiyasini egallashi lozim. Katta yoshdagi bolalarda o'yinchoqlar va o'yin materiallariga mas'uliyatli, ehtiyotkorona munosabatda bo'lish odatini shakllantiradilar.

XULOSA

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi bo'ladigan o'yin faolyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rahbarligidagi o'yinlar chog'ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlarini, o'xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o'yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo'l-yo'riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o'yinlarda bolalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o'zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo‘ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O‘yin hayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to‘g‘risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o‘z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo‘ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal qilish, mehnatning umumiy natijalaridan quvonish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Mashg‘ulotlardagi eng oddiy o‘quv faoliyati atrofdagi tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Agar 3-4 yoshda ta‘lim paytida bolalarning e‘tibori tabiat, odamlar xayotidagi aniq faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta‘lim berish muhim aloqalar va munosabatlarni o‘zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga karatilgan bo‘ladi, bu esa bolalarda tushunish tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. O‘zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o‘yinlarda va mehnatda qo‘llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta‘sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg‘ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o‘qishga o‘tish imkonini beradi.

«Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat‘i nazar, bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta‘lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat...»-degan edi davlatimiz rahbari.[1] O‘zbekistonda 3 mln nafarga yaqin 3–7 yoshli bola bor. Ularni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 74 foizni tashkil qilmoqda. Mamlakatda bu ko‘rsatkichni 2026-yilgacha

80 foizga, 2030-yilga borib, 100 foizga yetkazish reja qilinganligi ham oldimizda ulkan islohot va marra hamda vazifalar turganilidan dalolatdir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 29 dekabr 2020 yil.
2. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi" 2022 yil 28-yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son qarori.
5. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ-4312 2019.05.08
6. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Yangi tahrir. 2022.02.04.
7. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish katta va tayyorlov guruhi. Toshkent. 2018.
8. “Maktabgacha pedagogika” F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo’latova, N.M. Kayumova, M.N. A’zamova. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T. 2019.
9. Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020.
10. O’yin orqali ta’lim olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020.

Internet saytlari

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.Ziyonet.uz

www.edu.Uz